

## HOMILADORLIK TOKSIKOZLARI

**Ismoilova Xurshidaxon Shuxratjon qizi**

*Abu Ali Inb Sino nomidagi Qo'qon jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi.*

*Qo'qon, O'zbekiston.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada homiladorlik, homiladorlikda organizmda yuzaga keladigan o'zgarishlar, homiladorlikning kechishi, homiladorlik davrida kuzatiladigan erta va kechki toksikozlar, homiladorlik patologiyalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *homiladorlik, toksikoz, gigiyena, preeklampsiya, eklampsiya.*

**Аннотация.** *В данной статье собрана информация о беременности, изменениях, происходящих в организме во время беременности, поздних сроках беременности, ранних и поздних токсикозах, наблюдаемых во время беременности, а также о патологиях беременности.*

**Ключевые слова:** *беременность, токсикоз, гигиена, преэклампсия, эклампсия.*

**Abstract.** *This article contains information about pregnancy, changes that occur in the body during pregnancy, late pregnancy, early and late toxicosis observed during pregnancy, and pregnancy pathologies.*

**Key words:** *pregnancy, toxicosis, hygiene, preeclampsia, eclampsia.*

Homiladorlik fiziologik jarayon, u meyoriy holatda kechganda hech qanday asorat bermaydi. Homiladorlikka aloqador, bola tug'ilgach yoki homila ona qornida nobud bo'lganidan keyin tuzalib ketadigan kasalliklarni toksikozlar deyiladi. Toksikoz deganda homiladorlikda ayol organizmi toksinlar ta'sirida zararlanadimi, degan savol tug'ildi. Ko'p tekshiruvchilar ayollar organizmida homila tufayli toksin paydo bo'ladi va organizmni zararlaydi, deb hisoblaydilar. Ammo ayol organizmida biror bir toksin (zahar) topilmagan.

Homilaning ona qornida o'sib, rivojlanishi 9 oy (o'rta hisobda 280 kun) davom etadi. Ba'zan homiladorlik 240 kundan 310-320 kungacha cho'zilishi mumkin. Toksikoz homilador ayol organizmida moddalar almashinuvining biror turi buzilishi sababli vujudga keladi. Shuni aytib o'tish kerakki, homiladorlik davrida ayol meyoriy hayot kechirsa, vrach maslahatlariga amal qilsa, organizmida moddalar almashinuvi anchagina o'zgarsa ham homiladorlik davri meyoriy holatda o'tadi.

Homilador ayollarning organizmi ko'proq mineral tuzlarni, uglevodlarni, vitaminlarni va boshqa mikro va makro elementlarni ko'proq talab qiladi. Bu moddalar homilaning yaxshi o'sib rivojlanishi uchun hizmat qiladi. Uglevodalar homiladorlikda energetik material sifatida hizmat qiladi, glikogen sifatida faqat jigarda va muskullarda emas, balki bachadonda, plasentada ham to'planadi. Uglevodlar ona organizmidan homilaga glyukoza sifatida placentaga orqali o'tadi. Homilador organizmida oqsil, yog va uglevodlarning qisman oksidlanishi natijasida vujudga kelgan moddalar hamda karbonat angidridning organizmda to'planib qolishi kislota-ishqor muvozanatini buzadi. Natijada to'qimlarda fiziologik asidoz

kelib chiqadi, bu holat esa suv almashinuvining buzilishiga sabab bo'ladi. Homiladorlik davrida organizmda suv almashinuvi ham o'zgaradi. Homilador ayol odatdagidan ko'proq suyuqlik talab qiladi.

Mineral tuzlar (kaliy, kalsiy, fosfor, natriy, magniy va temir) ning almashinuvi suv almashinuvi bilan bog'liqdir. Mineral tuzlar har bir xujayra hayoti uchun zarur. Bularning organizmda ma'lum muvozanatda bo'lishi fiziologik jarayonni ta'minlaydi.

Homiladorlikda oqsil almashinuvi kamayadi. Homiladorlikning birinchi yarmida ovqat orqali organizmga tushgan oqsilning deyarli ko'p qismi ayol organizmining o'ziga sarflanadi, homiladorlikning ikkinchi yarmida esa u homila to'qimalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Homiladorlikda iste'mol qilingan oqsilning hammasi parchalanmaydi, balki qisman saqlanib qoladi, bunga homiladorlikda oqsil almashinuvining pasayishi sabab bo'ladi. Organizmda saqlanib qolgan oqsil tug'ruqda va emizish davrining boshlarida juda kerak bo'ladi. Homiladorlikning meyoriy kechishi hamda homilaning yaxshi o'sishi uchun ayol organizmida vitaminlar A, V, S, D, Ye yetarli bo'lishi kerak. Odatda homilador ayol organizmi ayniqsa vitaminlarga muhtoj bo'ladi. Bunga homilaning rivojlanishi va tanosil a'zolaridagi fiziologik o'zgarishlar sabab bo'ladi. Ma'lumki, homiladorlik boshlanishi bilan ayol organizmida juda ko'p o'zgarishlar ro'y beradi. Homiladorlikning dastlabki davridagi o'zgarishlar ba'zan tezda asli holiga keladi. Shuni unutmaslik kerakki, homiladorlik ona organizmiga katta vazifa yuklaydi. Ayol organizmi sog'lom va baquvvat bo'lsa, bu vazifani bimalol uddalaydi. Ayol organizmi yuqoridagi talablarga yetarli javob bera olmasa, salbiy holatlar yuzaga kela boshlaydi.

Shunday qilib, organizmning chidami susaygan, yosh turmushga chiqqan, yetarli rivojlanmagan, homiladorlikka aloqasi yuq ichki kasalliklar bilan og'rikan, tez-tez va ko'p homilador bo'ladigan ayollarda homiladorlik toksikozlari ko'proq uchraydi va og'irroq kechadi.

Ma'lumki, homiladorlik boshlanishida ko'pchilik ayollar boshqorong'i bo'ladi. Ularning ko'ngli aynaydi, turli narsalarni yegisi keladi (tuzlangan balik, qurut, gilvata, kesak), ba'zan ovqatlarning hatto xidi ham yoqmaydi. Go'shtli va yog'li ovqatlar yeganda homilador ayol qayt qiladi. Bo'yida bo'lgan ko'pchilik ayollarning boshlari aylanadi, uyqusizlikka uchraydi yoki uyquchan, sezarda bo'lib qolishadi. Bu alomatlarining qanchalik og'ir yoki yengil o'tishi ayol oliy nerv sistemasi faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Bu holatlar ba'zi ayollarda ertarok, ba'zilarida kechroq boshlanib, o'tib ketadi. Ammo ba'zi homilador ayollarda bu alomatlar yo'qolmay, zo'rayib boradi, natijada homiladorlik toksikozlari paydo bo'ladi. Agar ayol shifokor maslahatiga amal qilsa, to'g'ri ovqatlansa, gigiena qoidalariga amal qilsa, albatta unda toksikozlar avj olmaydi va yuqorida qayd qilib o'tilgan fiziologik holatlar ham yengil o'tadi. Shuning uchun homiladorlikni boshidan kechirayotgan ayollar ertaroq ayollar maslahatxonasiga borishlari kerak.

Homiladorlik tufayli yuzaga chiqadigan ba'zi kasalliklardan toksikozlarni ajrata bilish kerak. Xususan, yurak kasalliklari homiladorlikka taalluqli bo'lmasa ham, uning kechishini

og'irlashtirishi mumkin. Homiladorlik toksikozlari erta paydo bo'ladigan toksikozlarga va kechki (homiladorlikning ikkinchi yarmida paydo bo'ladigan) toksikozlarga bo'linadi.

Erta vujudga keluvchi toksikozlar - homiladorlikning dastlabki davrida ayol qayt qila boshlaydi, bu ko'pincha yeyilgan ovqatga bog'lik bo'lmaydi. Ayol aksari ertalab nahorda qayt qiladi. Avvaliga ayolning ahvoli unchalik o'zgarmaydi. Qayt qilishning harakteriga qarab homilador ayol organizmida turli darajadagi o'zgarishlar kuzatiladi.

Qayt qilish kechishiga ko'ra 3 xil yengil, o'rtacha va haddan tashqari ko'p qusish turlariga bo'linadi. Homilador ayolning sal-pal qayt qilib turishi kasallikning boshlanganidan darak beradi. Bunda ayol ko'pincha ovqatlanganidan keyin nahorda qayt qiladi. U yegan ovqatining hammasini tashlamaydi, ozginasini hazm qiladi. Ayolning ishtahasi pasayadi yoki butunlay yo'qoladi. Achchiq va nordon narsalarni ko'ngli tusaydi. Bemor unchalik ozmaydi. Siydik miqdori, arterial bosim o'zgarmaydi. Homilador ayol bezovta bo'ladi ba'zan uyqusizlikdan shikoyat qiladi va serjahl bo'lib qoladi. Bunday alomatlar davolashdan so'ng yoki oradan 3-5 xafvta o'tgach o'z-o'zidan yo'qoladi. Ba'zi homiladorlarda bu holatlar uzoq davom etishi ham mumkin.

O'rtacha qayt qilish esa, odatda uning yengil turidan boshlanadi. Homilador ovqat yesa yemasa ham qayt qilaveradi. Ayol borgan sari tez- tez qusadi. Bu odatda yeyilgan ovqatga bog'liq bo'lmaydi. Homilador ayol kuniga 20-25 martagacha qayt qiladi. Ayol tinkasi qurib, oza boshlaydi. Bu holat so'lak oqishi bilan birga kechganda yaqqol ko'zga tashlanadi. Organizm suvsizlanadi, teri quruqshaydi. Teri osti yog' qavati kamayib ketadi, arterial bosim pasayadi. Tana harorati 37,5 gacha ko'tariladi. Bir kunda ajraladigan siydik miqdori 300-500 ml gacha kamayadi. Bemor vaqtida tegishli davolansa, xomiladorlik meyoriy holatga o'tishi va ayol oy-kuni yetib, eson-omon farzandini dunyoga keltirishi mumkin.

O'rtacha qayt qilib yurgan ayol davolanmasa, juda ko'p qusadigan bo'lib qolishi mumkin. Bunda ayol hadeb qayt qilaveradi. Og'zidan aseton xidi kelib turadi. U juda ham ozib ketadi, tana xarorati 38 S dan yuqori bo'ladi. Ishtahasi kamayadi yoki butunlay yo'qoladi. Organizmda ochlikka xos belgilar paydo bo'ladi. Tomir urishi tezlashadi minutiga 120 marta uradi, qon bosimi pasayib ketadi. Teri va shiliq pardalar sarg'imgir ranga kiradi, teri kasalliklari paydo bo'ladi. Siydik quyuqlashib, ba'zan kelmay qo'yadi. Kasallik avj olgan sari nerv sistemasining ta'sirlanganligi ko'rina boshlaydi. Bemor bezovta yoki ma'yus bo'ladi. Hamma narsaga befarq qarab yotadi. Berilgan savollarga istar - istamas javob beradi. Kasallik ohirida bemor alahlaydi, xushidan ketadi xatto bemor nobud bo'lishi ham mumkin. Demak, qusishning yengil turi ham ayol organizmining kasalliklarga qarshilik ko'rsatish kuchini kamaytiradi. Ularda turli kasalliklar, ayniqsa kechki toksikozlar oson avj oladi. Qusishning o'rta yoki og'ir turlari esa hayot uchun xatarli bo'ladi. Homila yaxshi o'smaydi. Agar ayolda o'rtacha kusish turi bo'lsa xam u chala tug'adi yoki homila nimjon bo'lib tug'iladi, natijada go'dak turli kasalliklarga chalinishi va nobud bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, har qanday kasallikni davolashdan ko'ra oldini olish oson. Homilador ayolning qayt qilish sababini aniqlash zarur. Shundagina og'ir asoratlarning oldini olish

mumkin bo'lad. Bo'yida bo'lgan ayol gigiena qoidalariga, ovqatlanish rejimiga rioya qilishi, vitamanga boy, kaloriyali ovqatlar yeyishi kerak (sutkasiga o'rtacha 3500 kaloriya kerak bo'lad). Rivojlanayotgan homila ayoldan qo'shimcha oqsil, yog', mineral tuzlar va boshkalarni talab qiladi, shuni nazarda tutgan holda homilador ayol to'g'ri ovqatlanishi kerak.

Agar homiladorning qusishiga sabab bo'ladigan holatlar sodir bo'lsa, bunday hollarda ayolni unga yoqmaydigan sharoitlardan chetlatish shart, aks holda beriladigan dorilar va qo'llaniladigan davo choralari yordam bermaydi. Homilador ayolning qay turda qayt qilishiga qarab davolash choralari ko'riladi. Yengil qayt qilishda homilador ayol ayollar maslahatxonasiga qatnab davolanishi mumkin. Homilador ayolga ovqatni oz-ozdan, tez-tez yeb turish, ovqat o'ta issiq bo'lmasligi, ishdan keyin 1-2 soat dam olish kerakligi tushuntiriladi. Ayniqsa, ertalab biroz yonbosh yotgan holda nonushta qilishi tavsiya etiladi sababi qayt qilish yuzaga kelmaydi. Homilador ayol ko'proq ichni suradigan sabzovotli ovqatlardan yeb turishi tavsiya etiladi. Ayol to'yib uxlab, yaxshi dam olishi kerak. Agar uyqusizlik qiynasa, shifokor maslahati bilan tinchlantiruvchi dorilardan foydalanish mumkin. Xona havosini tez-tez almashtirib turish tavsiya etiladi. Qayt qilishga faqat ayollar shifokori davo choralari buyuradi. Qayt qilishning og'ir turlarida davolash tadbirlari yordam bermaganda, ba'zan abort qilib, homilani olib tashlashga ham to'g'ri keladi. Qayt qilib turadigan homiladorning so'lagi oqadigan bo'lib, bunda qusmasligi ham mumkin. So'lak oqishi bilan qayt qilishning birga o'tishiga sabab shuki, so'lak me'da shilliq qavatini qitiqlaydi, natijada ayol qayt qilishiga ehtiyoj sezadi. So'lak oqqanda ayol bir kunda 1-6 litrgacha suyuqlik yo'qotadi. Organizm shu bilan birga oqsil moddasini ham yo'qotadi. So'lak oqishini oldini olish uchun 1% mentol eritmasi, shalfey, moychechak nastoykasi bilan og'izni chayib turish yaxshi natija beradi. Shifokordan tegishli maslahatlarni olib turishi kerak.

Kechki toksikozlar. Homiladorlikning ikkinchi yarmida, ko'pincha so'ngi oylarida vjudga keladigan toksikozlar kechki toksikozlar deyiladi. Bularga homiladorlik istisqosi, nefropatiya, preeklampsiya va eklampsiya holatlari kiradi. Kechki toksikozlarning barchasi bir butun jarayon bo'lib, u ketma-ket keladi, bemor ahvoli borgan sari og'irlashib boradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Абдиева Сетора Ахмаджон кизи //ФАКТОРЫ РИСКА РВОТЫ БЕРЕМЕННЫХ// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 25-SON. 20.12.2023. 156-163.
2. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproktiv salomatlik. O'quv qo'llanma.
3. Parpieva, O. R., & Djalalidinova, O. O. (2022). Reproductive Health Issues. Texas Journal of Medical Science, 14, 58-61.
4. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproductive health.

5. Parpiyeva, O. R., & Dzhaldoldinova, O. O. (2022). The role of Valeology in raising a healthy generation. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 13, 1-3.
6. Tojalievna, M. M., & Ravshanovna, R. Y. (2023). Pregnancy during a pandemic of coronavirus infection COVID-19 risks and effects on the unborn child. *Texas Journal of Medical Science*, 18, 1-5.
7. Ruzibaeva, E. R., & Mamatkulova, M. T. (2023). VACCINATION AGAINST CORONAVIRUS INFECTION IN FERGANA REGION FOR THE PERIOD 2021-2022. *World Bulletin of Public Health*, 19, 240-242.
8. Рузибаева, Е. Р., & Маматкулова, М. Т. (2023). СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ РАКА ШЕЙКИ МАТКИ ЗА ПЕРИОД 2017-2021 г. г. ПО ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 632-637.
9. РУЗИБОЕВА, Е. Р., & КАРИМОВ, А. Р. ФАКТОРЫ, ПРЕДРАСПОЛАГАЮЩИЕ К РАЗВИТИЮ РАКА ШЕЙКИ МАТКИ СРЕДИ ЖЕНЩИН ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ ЗА ПЕРИОД 2017-2021 Г. Г. *ИНТЕРНАУКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука"*, 31-32.
10. Рузибоева, Е. Р., & Каримов, А. Р. (2021). Эпидемиологические особенности рака шейки матки.
11. Parpieva, O. R., Muydinova, E., Safarova, G., & Boltaboeva, N. (2020). Social and psychological aspects of a healthy life style. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1364-1368.
12. Parpiyeva, O. (2023). "KO'KRAK BEZI SARATONI BILAN KASALLANGAN AYOLLAR OVQATLANISHINI KORREKTSIYALASHNI ILMIY ASOSLASH" MAVZUSI BO'YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(12) 168-177.
13. Rakhmanovna, P. O. (2022). Nutrition and diet in breast cancer. *Texas Journal of Medical Science*, 7, 27-30.
14. Rakhmanovna, P. O., & Ugli, O. A. D. (2021). Modern Scientific Research In Oncological Diseases. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 3(03), 117-121.
15. Абдукаримова, Н. У., Муйдинова, Ё. Г., Парпиева, О. У., & Мухамедиева, И. Б. (2015). ОЦЕНКА РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ ЖЕНЩИН ГОРОДСКОЙ И СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ. In *Актуальные проблемы медицины в России и за рубежом* (pp. 102-104).
16. Parpieva, O. R., Muydinova, E., & Safarova, G. (2021). Breast cancer. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 482-485.
17. Parpiyeva, O. R. (2023). THE IMPORTANCE OF THE NURSE'S ACTIVITY IN CARRYING OUT PATRONAGE OF ONCOLOGICAL PATIENTS. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, 3(8), 53-56.

18. Парпиева, О. Р. (2023). КЎКРАК БЕЗИ САРАТОНИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 446-454.
19. Makhbuba Mamatkulova // Early Prenatal Diagnosis And Prevention Of Birth Damage Development In Children (Spina Bifida - A Defect In The Development Of The Nervous System)// The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. Vol. 03. Issue 04-16. April 30, 2021. 117-126 pages.
20. Парпиева, О. Р., & Хайриллов, Х. И. (2023). ЗНАЧЕНИЕ УНИВЕРСАЛЬНОЙ ПРОГРЕССИВНОЙ МОДЕЛИ В РАБОТЕ С МАТЕРЯМИ И ДЕТЬМИ В СИСТЕМЕ ПЕРВИЧНОГО ЗВЕНА. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(10), 141-145.
21. Парпиева, О. Р., & Хайриллов, Х. И. (2023). ОНКОЛОГИК БЕМОРЛАР ПАТРОНАЖИНИ ОЛИБ БОРИШДА ТИББИЁТ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ АҲАМИЯТИ. Scientific Impulse, 1(10), 936-940.
22. Kurbanova, I., Kamalova, D., Djalolova, D., & Akhmedov, M. (2021, November). Dynamical analysis of improvement of the needle mechanism in sewing machines. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2402, No. 1). AIP Publishing.
23. Kamalova, D. (2023). YOD TANQISLIGINING TA'SIRI. Евразийский журнал академических исследований, 3(4), 135-139.
24. Камалова, Д. А. (2019). Изменения в практике оплаты труда на производстве. Международный научно-исследовательский журнал, (10-2 (88)), 67-69.
25. Камалова, Д. А., & Искандарова, Ш. Т. (2013). Организация эффективных медико-санитарных мероприятий в борьбе с алкоголизмом и наркоманией. Вестник экстренной медицины, (3), 213-214.
26. Zafarbek Mirzaolimovich Komilov, & Qo'chqorov Oybek G'ulomovich. (2023). UBAYDULLON KANHOL – XVI ASR O'RTA SHARQ YIRIK OKULISTI . Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 217-220.
27. Комилова Дилдора Алишеровна. (2023). АДАПТАЦИЯ И АДАПТАЦИОННЫЕ РЕЗЕРВЫ ОРГАНИЗМА. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 221–223.
28. Kamalova, D. (2023). The value of the universal progressive model in working with mothers and children in the primary care system. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 20, 60-62.
29. Рузматова, Х. К., Камалова, Д. А., & Мухаммадова, Г. К. (2023). НАРОДНОЕ ЛЕЧЕНИЕ РАКА ЛЕГКИХ. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
30. Abdiyeva, S. (2023). THE IMPORTANCE OF EFFECTIVE TECHNIQUES IN INCREASING VOCABULARY RANGE OF STUDENTS. Innovative Development in Educational Activities, 2(3), 129-132.
31. Abdiyeva, S. A., & Rahimova, N. B. (2021). MODERN PROBLEMS OF OBSTETRICS AND GYNECOLOGY. Экономика и социум, (12-1 (91)), 3-6.

32. Abdiyeva, S. A., & Haydarova, Z. A. (2021). EARLY TOXICOSIS IN PREGNANCY. Экономика и социум, (11-1 (90)), 3-6.

33. Abdiyeva, S. A., & Haydarova, Z. A. (2021). THE VALUE OF THE PSYCHE PREGNANT IN THE DEVELOPMENT OF EARLY TOXEMIA. Мировая наука, (11 (56)), 3-6.